ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC JOURNAL**

2022-yil, 3-son (133) **TABIIY FANLAR SERIYASI**

Kimyo, Biologiya, Geografiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

N. B. FERAPONTOV - k.f.d., professor (Moskva davlat universiteti, Rossiya)
SH. M. TUGIZOV - professor, Koliforniya universiteti, AQSh
H. I. AKBAROV - k.f.d., professor (O'zMU)
E. A. ABDURAXMONOV - k.f.d., professor (SamDU)
N. K. MUXAMADIYEV - k.f.d., professor (SamDU)
K. G. TOKHADZE - Sank Peterburg davlat universiteti professori, Rossiya
L. A. BULAVIN - Kiev milliy universiteti professori, Ukraina
X. Q. XAYDAROV - b.f.d., professor (SamDU)
Z. I. IZZATULLAYEV - b.f.d., professor (SamDU)
Sh. T. XOLIQULOV - g.f.d., professor (SamDU)
MIHAY BULAI - Aleksandr Ioan Kuza universiteti professori, Ruminiya
GUN-SIK PARK - Seul univeriteti professori, Koreya

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

KIMYO / ХИМИЯ / CHEMISTRY

Каримов Х.Р., Джураева Р.А, Рахмонов Ж.А., Тробов Х.Т., Турсунова Ш.Х., Ш.Ш.Атавуллаева.
Статистическая обработка параметров двухфазной модели строения зерна ионита..... 4-9
Toshpulatov D.T., Mirzayev Sh.E., Yakubov B.A., Magdiyev Sh.M., Tashpulatov X.Sh., Nasimov A.M.
Bo‘yoqlarga sezgir bo‘lgan quyosh elementlari uchun kobalt(II) kompleksining sintezi va fotokimyoviy tadqiqoti..... 10-13
Begimqulova Sh.A., Ivanes A., Ruzimurodov O.N., Nasimov A.M., Mirzayev Sh.E.
Zol-gel usulida Li^+ uchun $LiMn_2O_4$ shpinel tuzilishli adsorbentlarni sintez qilish..... 14-17
Джалилов М.У., Нурбоев Х.И., Келдиёрова Ш.Х., Тошмуродов Д.А., Мустафоев Э.У.
Приготовление стандартных парогазовых смесей..... 18-23
Жалилов М.Ж., Сманова З.А., Кутлимуратова Н.Х., Турсунова С.У.
Оптимизация условий методики определения м-крезола и фенола в инсулине сорбционной-спектроскопией..... 24-32
Козинская Л.К., Мирхамитова Д.Х.
Компьютерное моделирование синтеза 4′,4′′-ди-(1-метил-1-гидрокси-2-фенилэтинил)-дибензо-18-краун-6..... 33-40
Xandamova D.K., Nurullayev Sh.P., Toshboyev X.M.
Faollangan kaolinda Metanol adsorbsiyasi 41-45
Niyazov L.N., Brel A.K.
Salitsil kislotaning amid hamda diamid hosilasi sintezi va xossalari..... 46-50
Орипов Э., Тухсанов Ф., Зохидов К., Нармаева Г.
Нитрование 2,3-полиметилен-3,4-дигидрохиназолин-4-онов и хиназолинов..... 51-55
Tashmatova R.V., Ruziyev I.X.
Kimyo darslarida kompyuter texnologiyasidan foydalanish..... 56-60
Гайбуллаев Ш., Тухсанов Ф., Асроров Д.А., Насруллаев А.О., Тиллаев С.У., Захидов К.А.
Синтез и нитрование 2,3-полиметилен-3,4-дигидрохинозолин-4-тионов..... 61-64
Niyozov E.D., Ortiqov Sh.Sh., Sharipov M.S., Norov I.I.
Kraxmal va PFK ning Natriyli tuzi asosida kalava iplarni ohorlash uchun polimer kompozitsiyalarni ishlab chiqarishning fizik-kimyoviy asoslari..... 65-70
Yeshimbetov A., Xodjaniyazov X., Ibragimov A.S., Ashurov J.M., Ibragimov B.T.
Gossipol komplekslarida molekulalararo ta’sirlashish energiyalari. Uni kuch maydonlari usulida nazariy hisoblashlar..... 71-75
Юсупова С.С., Холмуродова Д.К., Киямова Д.Ш.
Выделение и установление строение физиологически активных препаратов из растение семейства fabaceae..... 76-80
Bobojonov J.Sh., Shukurov J.S., O’tashev Y.I., Tog`asharov A.S.
$Ca(ClO_3)_2 \cdot 4CO(NH_2)_2$ – $C_3H_8O_3N_2 \cdot NH_2C_2H_4OH$ – H_2O sistemasining politermik eruvchanligini o‘rganish..... 81-84
Eshqurbonov F.B., Raximov A.X., Izzatillaev N.A., Botirov A.Y.
Ionalmashinuvchi kompozitsion materiallarning elektron mikroskopik tadqiqoti va sirt-faollik tavsifini o‘rganish..... 85-88

BIOLOGIYA / БИОЛОГИЯ / BIOLOGY

Maxammadiyeva D.B., Gulboyev G.T., Alikulov B.S.
Fitogormonlar ishlab chiqarish-galofitlar endofit bakteriyalarining o‘simliklarda sho‘rlanish stressini kamaytirishdagi muhim mexanizm sifatida..... 89-92
Davronqulova F.A.
Klematis o’simligi turlarining dekorativlik xususiyatlari va ularni yetishtirish..... 93-97

Rustamova N., Davranov K., Abulimiti Yili
Isolation, identification and biological activity of endophytic bacteria Bacillus haynesii XJB-6 associated with medicinal plant vernonia anthelmintica stem..... 98-101

GEOGRAFIYA / ГЕОГРАФИЯ /GEOGRAPHY

Tojiyeva Z.N., Ibragimov L.Z., Musayev B.M.
O‘zbekistonda demografik modernizatsiyalash..... 102-106
Baratov X.A., Shirinboyev D.N.
O‘rta zarafshon vohalari antropogen gidrografik tarmoqlari..... 107-114
Ganiyev Z.A.
Amudaryo deltasi tabiiy muhitini optimallashtirishning asosiy yo‘nalishlari..... 115-118
Turdimambetov I.R., Baltabayev O.O.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili..... 119-125
Temirov Z.A.
Farg‘ona vodiysi viloyatlarida nikohlanish va tug‘ilish koeffitsienti korrelyatsion bog‘liqlik dinamikasi hamda unga xos hududiy xususiyatlar..... 126-131
Xudoyberdiyeva I.A.
Chorvachilik tarmoqlarini o‘rganishning iqtisodiy geografik jihatlari…….. 132-135

Mualliflarga

UDK: 314.186.4

FARG‘ONA VODIYSI VILOYATLARIDA NIKOHLANISH VA TUG‘ILISH KOEFFITSIENTI KORRELYATSION BOG‘LIQLIK DINAMIKASI HAMDA UNGA XOS HUDUDIY XUSUSIYATLAR

Z.A.Temirov
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fargo‘na vodiysi viloyatlarida tug’ilishning umumiy, maxsus, hususiy va yig’indi koeffisientlari tahlil qilingan. Aholining nikohlanish koeffisienti va uning dinamikasi o‘rganilgan. Nikohlanish va tug‘ilish koeffisiyentlari o‘rtasidagi aniqlangan korrelyetsion bog‘liqlik dinamikasi asosida Farg‘ona vodiysi viloyatlariga hos xususiyatlar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Geodemograiya, tug‘ilish, nikoh, korrelyatsion bog‘liqlik, geodemografik omillar, faol reproduktiv davr.

Динамика корреляционной зависимости коэффициента брака и рождаемости в областях Ферганской долины и ее специфические территориальные особенности

Аннотация. В данной статье проанализированы общий, специальные, частные и совокупные коэффициенты рождаемости в областях Ферганской долины. Изучен коэффициент брака населения и его динамика. На основе динамики выявленных корреляционных связей между коэффициентами вступления в брак и рождаемости выявлены особенности, характерные для областей Ферганской долины.

Ключевые слова: геодемография, рождение, брак, корреляционная зависимость, геодемографические факторы, активный репродуктивный период.

Dynamics of correctional dependence of marriage and fertility and its territorial characteristics in the regions of the Fergana valley

Abstract. This article analyzes the general, special, private and aggregate birth rate in the regions of the Fergana Valley. The marriage rate of the population and its dynamics have been studied. Based on the dynamics of the correlation between the marriage and birth rates, the features of the regions of the Ferghana Valley are revealed.

Keywords: geodemography, birth, marriage, correlation, geodemographic factors, active reproductive period.

Kirish. Aholi soni, tarkibi tabiiy va mexanik harakatlar natijasida muntazam ravishda yangilanib, o‘zgarib turadi. Tug‘ilish va o‘lim jarayonlari natijasida avlodlar almashadi, ya’ni aholining takror barpo bo‘lishi ro‘y beradi. Bu esa aholining yangilanib turishini ta’minlaydi.

Hududlar aholisi takror barpo bo‘lishiga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik va boshqa omillar ta’siri oqibatida yuzaga kelgan o‘ziga xos geodemografik vaziyatni, demografik jarayonlar rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda uning hududiy xususiyatlarini aniqlash, hududiy demografik siyosat va taraqqiyotning yo‘nalishlarining ilmiy asoslarini takomillashtirish va maxsus dasturlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Respublikamizda inson omiliga yo‘naltirilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish”[1] yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, yuqori demografik salohiyatga ega Farg‘ona vodiysi viloyatlarining aholi takror barpo bo‘lish jarayonlarini, hududiy demografik jarayonlarni hududiy hususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotda tarixiy, statistik-matematik, tizim-tarkib, taqqoslash usullaridan foydalanilgan. Farg’ona vodiysi viloyatlari aholisi, uning joylashuvi, mexnat resurslari va ulardan foydalanish, ijtimoiy muhofaza qilishga doir tadqiqotlar olib borilgan [2, 4, 5, 7, 10.]. holda Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarining aholisi va uning tug’ilish va nikohlanish koeffisiyentlari o’rtasidagi korrelyatsion bog’liqlik dinamikasi aniqlangan.

Asosiy qism. Aholi soni, tarkibi tabiiy va mexanik harakatlar natijasida muntazam ravishda yangilanib, o‘zgarib turadi. Tug‘ilish va o‘lim jarayonlari natijasida avlodlar almashadi, ya’ni aholining takror barpo bo‘lishi ro‘y beradi. Bu esa aholining yangilanib turishini ta’minlaydi.

Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi viloyatlari aholisi o'ziga xos geodemografik rivojlanish yo'lidan bordi [8].

Farg'ona vodiysi viloyatlarida 1991-2020 yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsienti 36,5‰ dan 25,2‰ ga, o'limning umumiy koeffitsienti 6,2 ‰ dan 4,8 ‰ ga kamaydi. Tabiiy o'sish sur'ati 30,3 ‰ dan 20,4 ‰ ga pasaydi. Tadqiq etilayotgan davr boshida tug'ilish va tabiiy o'sish sur'ati yuqori bo'lgan. Aholining iqtisodiy sharoiti, ijtimoiy fikri o'zgarishi natijasida 1991-2000 yillarda tug'ilish koeffitsienti pasayib bordi. 2000-2007 yillarda tug'ilish va tabiiy o'sish darajasi eng past ko'rsatkichga ega bo'ldi. Keyingi yillarda tug'ilish koeffitsienti yana ortib bordi. Bunda, tug'ilishning umumiy koeffitsienti 1985-1990 yillarda tug'ilish va tabiiy o'sish sur'ati yuqori bo'lganligi va ular 2007 yillardan keyin nikoh yoshiga yetishi bilan izohlansa, o'lim koeffitsientining qisqarishida aholi o'rtacha umrining ortib borishi muhim omil hisoblanadi.

Hududlarda aholi turmush tarzining yaxshilanishi, ko'p farzand ko'rishga bo'lgan munosabatning o'zgarishi ayollarning reproduktiv davridagi o'rtacha farzandlar sonini kamayib borishiga sabab bo'ldi. Keyingi yillarda reproduktiv yoshdagi bitta ayolga to'g'ri keluvchi o'rtacha farzandlar soni asta-sekin ortib borishi kuzatilmoqda. Bu holat vodiy viloyatlarida tug'ilgan chaqaloqlar soni va tug'ilishning umumiy koeffitsientining o'zgarib borishida o'z aksini topdi.

Mustaqillik yillarida kuzatilgan demografik o'tish davrida ayollarning bandlik va ma'lumotlilik darajasi oshganligi, oilada tug'ilayotgan farzandlar soniga bo'lgan munosabatning keskin o'zgarishida aks eta boshladi.

1991-2020 yillarda tug'ilishning umumiy koeffitsienti Farg'ona vodiysi viloyatlari shahar va tumanlarida hududiy tafovutlarga ega bo'ldi (1-jadvalga qarang).

Tadqiq etilayotgan davr boshlari, ya'ni 1991 yilda Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholining milliy tarkibi murakkab va bandlik darajasi yuqori bo'lgan Farg'ona (20,8‰) va Xonobod (20,4‰) shaharlarida tug'ilishning umumiy koeffitsienti o'rtacha, o'ziga xos tarixiga ega bo'lgan Qo'qon (28,6‰) va unga qo'shni tumanlarda hamda Andijon shahri (26,8‰) va qo'shni tumanlarda o'rtachadan yuqori daraja kuzatildi. Farg'ona vodiysining aholi yashashi uchun tabiiy sharoiti noqulay, qo'riq hududda joylashgan va aholi zichligi past bo'lgan Beshariq (50,1‰) va Mingbuloq (41,9‰) tumanlarida bu koeffitsient juda yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

1-jadval

Farg'ona vodiysi viloyatlarida tug'ilishning umumiy koeffitsientini B.Urlanis tasnifi bo'yicha baholash

Tug'ilish darajasi tavsifi	Tug'ilishning umumiy koeffitsienti (har 1000 kishiga)	Tug'ilishning umumiy koeffitsienti bo'yicha guruhlarga mansub tuman va shaharlar soni, ta				Aholisining salmog'i, foizda			
		1991	2000	2010	2020	1991	2000	2010	2020
Favqulodda past	10 dan kam	-	-	-	-	-	-	-	-
Juda past	11-15	-	2	-	-	-	3,8	-	-
Past	16-20	-	28	1	2	-	62,0	3,0	3,4
O'rtacha	21-25	2	17	43	27	4,4	34,2	91,5	53,5
O'rtachadan yuqori	26-30	4	-	2	18	14,8	-	4,5	43,1
Yuqori	31-40	39	-	1	-	77,3	-	1,0	-
Juda yuqori	41-50	2	-	-	-	3,5	-	-	-
	Jami	47	47	47	47	100	100	100	100

Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

Farg'ona vodiysi viloyatlarining boshqa shahar va tumanlarida (aholisining 77,3 foizi) tug'ilishning umumiy koeffitsientini yuqori darajasi kuzatildi. 2020 yilga kelib vodiy viloyatlarining 53,5 foiz aholisida tug'ilishning umumiy koeffitsienti o'rtacha va 43,1 foiz o'rtachadan yuqori darajaga to'g'ri keldi. Jumladan, vodiy viloyatlarining asosiy shaharlari hisoblangan Farg'ona

(19,4‰) va Xonobod (19,5 ‰) shaharlarida ushbu koeffitsientning past darajasi kuzatildi. Faqatgina o‘ziga xos urf-odati va milliy mentaliteti (erta turmushga chiqish, ajralishning nisbatan kamligi)ga ega bo‘lgan Namangan shahri (29,0‰) unga qo‘shni Uychi tumanida (27,5‰) eng yuqori ko‘rsatkich kuzatilgan.

Aholi o‘rtasida tug‘ilish ko‘rsatkichlariga demografik omillar ta’siri u qadar sezilarli emas. Jumladan, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida 1991 yilda 15-49 farzand ko‘rish yoshidagi ayollar jami ayollarning 45,6 foizini tashkil etgan. Tug‘ilishning umumiy koeffitsienti 35,2 ‰ ga teng bo‘ldi. Keyingi yillarda fertil yoshidagi ayollarning jami ayollardagi salmog‘i ortib borib, 2000 yilda 51,3 foiz, 2010 yilda 57,5 foizni va 2020 yilda 52,4 foizni tashkil etdi. Reproduktiv yoshdagi ayollarning jami ayollarga nisbatan eng yuqori salmog‘i 2012 yilda kuzatilgan va 57,7 foizni tashkil qilgan. Lekin, tug‘ilishning umumiy koeffitsienti ushbu yillarda kamayib borib, 2000 yilda 20,4 ‰, 2010 yilda 23,0 ‰, 2012 yilda 20,6 va 2020 yilda 25,2 ‰ ga teng bo‘ldi. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida 1991-2012 yillarda umumiy ayollarda farzand ko‘rish yoshidagi ayollar salmog‘ining ortib borishi va tug‘ilish sur’atining kamayib borishi va keyingi yillarda fertil yoshidagi ayollar salmog‘i kamayib, tug‘ilishning ortishi kuzatildi. Fertil yoshidagi ayollar salmog‘ining o‘zgarishi bilan tug‘ilish darajasining pasayib borishi, tug‘ilishning maxsus, xususiy va yig‘indi koeffitsientini o‘zgarib borishi bilan izohlash mumkin (2-jadvalga qarang).

Shuningdek, 2000-2020 yillarda Andijon va Farg‘ona viloyatlarida 15-19 yoshli ayollarda tug‘ilish koeffitsienti ortib bordi, Namangan viloyatida 2000-2012 yillarda kamayib borishi hamda keyingi yillarda ortib borishi kuzatildi. Bunda mazkur yosh guruhidagi ayollarning jami ayollar bo‘yicha ulushining o‘zgarishi asosiy omil hisoblanadi. 2000-2012 yillar davomida 40-44 va 45-49 yoshdagi onalarning tug‘ish koeffitsienti kamayishi va keyingi yillarda ortib borishi kuzatildi. Ushbu holat 2012 yilgacha onalarning “*faol reproduktiv davr*” qisqarib borganligi va undan keyingi davrda ortib borayotganligini bildiradi.

2-jadval

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida tug‘ilishning xususiy, maxsus va yig‘indi koeffitsientlarining o‘zgarishi (2000-2020 yy.)

Yillar		Onalarning yosh guruhi							15-49 yosh ona-lar	Tug‘il gan-lar soni	TMK	TYK
		15-19	20-24	25-29	30-34	35-39	40-44	45-49				
Andijon viloyati	2000	16,5	190,0	147,3	78,4	24,7	4,8	0,8	586884	43897	74,8	**2,3127**
	2010	24,6	194,1	160,7	79,5	24,5	3,8	0,2	766280	59953	78,2	**2,4374**
	2012	21,4	185,5	150,3	71,2	19,7	2,6	0,1	784329	58277	74,3	**2,2545**
	2020	26,1	258,7	190,6	109,7	39,5	4,6	0,2	823998	81425	98,8	**3,1463**
an vil	2000	30,2	212,0	146,2	75,6	21,3	1,4	0,4	502966	40772	83,1	**2,4352**

	2010	27,2	181,7	152,0	66,0	18,9	2,6	0,2	684003	50799	74,3	**2,2428**
	2012	26,4	173,6	142,3	64,0	15,4	2,3	0,1	705439	50603	71,7	**2,1208**
	2020	32,9	250,6	190,1	106,9	36,0	3,6	0,1	756735	74720	98,7	**3,1009**
Farg'ona viloyati	2000	20,0	209,6	138,4	67,2	20,4	4,0	0,2	703971	53168	75,5	2,2992
	2010	26,2	200,5	156,3	67,4	18,1	2,6	0,2	925188	70622	76,3	**2,3560**
	2012	27,7	179,4	139,8	61,1	14,7	1,9	0,1	949338	66989	70,6	**2,1232**
	2020	30,9	248,0	176,2	100,2	33,7	2,9	0,2	1000688	93037	93,0	**2,9601**
Fargona vodiysi	2000	21,8	204,0	143,5	73,2	22,1	3,5	0,5	1793821	137837	76,8	**2,3431**
	2010	26,0	192,9	156,4	70,9	20,4	3,0	0,2	2375471	181374	76,4	**2,3490**
	2012	25,3	179,6	143,9	65,2	16,5	2,3	0,1	2439106	175869	72,1	**2,1645**
	2020	30,0	252,1	184,9	105,2	36,2	3,7	0,2	581421	249182	96,5	**3,0609**

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Tug‘ilish darajasining kamayishi yoki ortib borishida nikoh va ajralish jarayonlari bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillardan hisoblanadi. Shuningdek, bu jarayonlar jamiyat hayotida katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Nikoh ayol va erkak o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qo‘llab quvvatlangan va jamiyat tomonidan tartibga solinuvchi shaklidir. Ajralish avloddagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohini bekor qilishidir [3; 99-b.]. Tug‘ilishning yuqori bo‘lishida nikohlanish darajasi, nikohga kirish yoshi, nikoh barqarorligi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Vodiy viloyatlarida 1991-2020 yillarda har mingta aholiga to‘g‘ri keluvchi nikoh koeffitsienti 13,7 dan 8,9 taga kamaydi (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida nikoh koeffitsienti dinamikasi (1991-2020 yy.)

Viloyatlar nomi	1991	1995	2000	2005	2010	2015	2020
O‘zbekiston Respublikasi	12,8	7,4	6,8	7,0	10,0	9,1	9,5
Andijon	14,1	8,1	6,1	6,6	10,0	9,7	11,3
Namangan	13,2	7,5	6,6	7,1	10,0	9,5	8,4
Farg‘ona	13,7	7,8	6,3	7,3	10,2	8,8	8,3
Vodiy bo‘yicha	13,7	7,8	6,8	7,1	10,2	9,3	9,3

Jadval O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shuningdek, tadqiqot davrida respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lib keldi. Nikoh koeffitsientining kamayib borishida asosan, nikohga kirish yoshining ortib borishi va nikohga kirish yoshidagi aholi yosh tarkibidagi o‘zgarishlar bilan izohlash mumkin. 1991-2020 yillar davomida aholining, shu jumladan yoshlarning nikoh munosabatlari, oila mustahkamligi va mustaqilligi

to‘g‘risidagi fikrlarining ijobiy tomonga o‘zgarishi natijasida respublikada, shuningdek vodiy viloyatlarida ham nikohga kirish yoshi ortib bordi. 2000-2020 yillarda vodiy viloyatlarida ilk nikohga kirish yoshi ayollarda 20,4 yoshdan 22,1 yoshga, erkaklarda 23,5 yoshdan 25,9 yoshga ortgani kuzatildi. Ushbu davrda ayollarda ilk nikoh yoshi 1,7 yoshga ortgan bo‘lsa, erkaklarda bu ko‘rsatkich 2,4 yoshga teng bo‘ldi. Farg‘ona vodiysi viloyatlari orasida ilk nikoh yoshining eng past ko‘rsatkichi tug‘ilish va tabiiy o‘sish darajasi yuqori bo‘lgan Namangan viloyatiga to‘g‘ri kelsa, eng yuqori ko‘rsatkichi aholi zich joylashgan Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Vodiy viloyatlari orasidagi o‘rtacha daraja Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri keldi. 2000-2020 yillarda vodiy viloyatlarida nikohga kirish yoshi ortib borishi bilan birga, ular orasidagi tafovut kamayib bordi. Nikohga kirish yoshining ortib borishi, yoshlarning dunyoqarashi va mustaqil fikrini o‘zgarishi jamiyatda sog‘lom oilalar ko‘payishiga olib kelishi bilan birga, nikohsiz tug‘ilishning ortishi kabi demografik havf yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi, xususan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yoshlarning nikohga kirish yoshi asosan 20-25 yoshga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi. Tug‘ilish darajasining davriy o‘zgarishi natijasida ushbu 20-25 yosh guruhining jami aholidagi salmog‘i ham o‘zgarib bordi. Jumladan, 1991-2005 yillarda vodiy viloyatlarida 20-25 yoshdagi aholining jami aholidagi salmog‘i 11 foizni tashkil etgani holda nikoh koeffitsienti 13,7 promilledan 7,1 promillega kamaydi. 2006-2012 yillarda 20-25 yoshdagi aholining salmog‘i 12 foiz, 2013 yilda 13 foiz va keyingi yillarda 12 foizni tashkil etdi. Mos ravishda 2006-2012 yillarda nikoh koeffitsienti har mingta aholiga 7,7 tadan 10,0 taga ortdi. 2013 yilda vodiyda eng yuqori nikoh darajasi kuzatilib, 10,5 promilleniga teng bo‘ldi. Keyingi yillarda nikohlanish koeffitsienti 10,2 promilledan 9,7 promillegacha kamayib bordi. 2000-2005 yillarda tug‘ilganlar soni va tabiiy o‘sish sur’ati eng past bo‘lganligi natijasida yaqin yillarda nikoh darajasini pasayib borishi kutiladi.

Nikohlanish darajasining o‘zgarishi tug‘ilish koeffitsientiga ham sezilarli ta’sirga ega hisoblanadi. Bugungi kunda vodiy viloyatlarida tug‘ilgan farzandlarning 37,7 foizi oiladagi birinchi farzandga va 35,9 foizi ikkinchi farzandlarga to‘g‘ri keladi. Tug‘ilgan bolalarning 73,6 foizi oiladagi birinchi va ikkinchi farzandlarga to‘g‘ri kelishi, nikohlanish darajasining o‘zgarishi kabi omillar tug‘ilish darajasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Nikoh munosabatlarining barqarorligi tug‘ilish jarayoni yuqori bo‘lishida muhim o‘rin egallaydi. Vodiy viloyatlarida nikoh va tug‘ilish jarayoni korrelyatsion bog‘lanish o‘rtacha bo‘lib Spirmen-korrelyatsiya koeffitsienti 2010 yilda R=0,63ga, tug‘ilish va oiladagi o‘rtacha farzandlar soni eng kam bo‘lgan 2012 yilda R=0,41 ga teng bo‘ldi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida nikoh va tug‘ilish koeffitsienti hamda oiladagi o‘rtacha farzandlar sonining korrelyatsion bog‘lanishi

Yillar	O‘zbekiston Respublikasi			Farg‘ona vodiysi viloyatlari		
	Spirmen-korrelyatsiya koeffitsienti	Tug‘ilish koeffitsienti	Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsienti	Spirmen-korrelyatsiya koeffitsienti	Tug‘ilish koeffitsienti	Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsienti
2010	0,24	22,0	2,3	0,63	22,1	2,4
2012	0,60	21,0	2,2	0,41	20,8	2,2
2015	0,54	23,5	2,5	0,65	23,6	2,5
2020	0,72	24,6	2,9	0,49	25,6	3,1

Korrelyatsiya koeffitsienti qiymatiga ko‘ra bog‘lanish darajasini baholash					
Qiymati	0,1-0,3	0,3-0,5	0,5-0,7	0,7-0,9	0,9 <
Bog‘lanish kuchi	Bo‘sh	O‘rtacha	Sezilarli	Yuqori	Juda yuqori

Jadval O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tahlillarga ko‘ra, korrelyatsion bog‘lanish eng past bo‘lgan 2012 yilda korrelyatsiya koeffitsienti R=0,41 yoki o‘rtacha bog‘lanish kuchiga teng bo‘lib, tug‘ilish 20,8 ‰ (past)ga va oiladagi o‘rtacha farzandlar soni 2,2 taga, ya’ni o‘rtacha ko‘rsatkichga teng bo‘ldi. So‘nggi 2020 yilda korrelyatsiya koeffitsienti R=0,49 ga, ya’ni o‘rtacha bog‘lanish kuchiga teng bo‘lib, tug‘ilishning umumiy koeffitsienti 25,6 ‰ga va oiladagi o‘rtacha farzandlar soni 3,1 taga, ya’ni o‘rtachadan yuqori ko‘rsatkichga teng bo‘ldi. Mazkur holat Farg‘ona vodiysi viloyatlarida katta yoshdagi onalarda tug‘ilish sur’atini ortib borayotganligini asoslaydi.

Xulosa. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida aholining nikohlanish va tug‘ilish koeffitsientining korrelyatsion bog‘liqlik dinamikasiga ko‘ra, 2012-yilgacha bo‘lgan davrda onalarning birinchi farzand ko‘rish yoshi ortib borganligi hamda oiladagi o‘rtacha farzandlar soni kamayishi, so‘nggi yillarda tug‘ilgan bolalar soni yosh avloddan katta avlodga qarab ortib borganligi va o‘rtacha farzandlar soni ortganligi aniqlandi. Bu esa ayollarning *“faol reproduktiv davr”*ni katta yoshga tomon siljishiga olib keldi.

Farg‘ona vodiysi viloyatlarida aholining nikohlanish jarayoni va tug‘ilish koeffitsienti o‘rtasidagi aniqlangan korrelyatsion bog‘liqlik dinamikasi ma’lumotlari asosida inson kapitalini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish vazifalarini bajarish dasturlarini takomilashtirishda foydalanish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Абдувалиев Ҳ. Аҳолининг ҳудудий ташкил этилишини ландшафт омили асосида такомиллаштириш (Фарғона водийси мисолида). География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Т.: 2020, –Б. 16.
3. Абдурахмонов Қ., Абдураманов Х. Демография. –Т.: Ношир, 2011. –296 б.
4. Аҳмадалиев Ю. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. –Т.: Fan va texnologiya, 2014. –340 б.
5. Жумахонов Ш.З. Наманган вилояти аҳолиси ҳудудий таркибини такомиллаштириш. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Наманган, 1998. –138 б.
6. Исоқова Т., Хўжақулов Х. Демография статистикаси. –Т.: УАЖБИТ маркази. 2004. –144 б.
7. Мамажонов М. Андижон вилояти аҳолисини ижтимоий муҳофаза қилишнинг географик жиҳатлари. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2004. –24 б.
8. Темиров З.А. Фарғона водийси вилоятларида демографик жараёнлар ривожланишига хос ҳудудий хусусиятлар. География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2022. -20 б.
9. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши. –Т.: –2010. –276 б.
10. Қодиров Р.Б. Ўзбекистон Республикаси Фарғона водийси вилоятларида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш йўллари. География фанлари доктори (DSc)диссертацияси автореферати. –Т.: 2021. –Б.16.